

Asronbekova Rayyona

Andijon davlat universiteti filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqola afsona va rivoyatlarni ilmiy tahlil qilish, misollar orqali to‘liq ma’lumot berish va bu janrlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotlarga ko‘ra afsona va rivoyatning o‘ziga xos xususiyatlari, shakllari, mazmuni, ularning bir biridan farqi va funksional jihatlar hamda ularning adabiyotdagi o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Annotation

This article aims to scientifically analyze myths and legends, provide complete information through examples, and identify the differences between these genres. According to the research, the specific characteristics, forms, content, differences and functional aspects of myths and legends, as well as their role and significance in literature, are examined.

Kalit so‘zlar

Afsona, rivoyat, xalq adabiyoti, tarixiy xotira, uydirma, madaniy meros, tarixiy rivoyatlar, toponimik rivoyatlar, ramziy qahramon.

Keywords

Legend, story, folk literature, historical memory, fiction, cultural heritage, historical narratives, toponymic narratives, symbolic hero

Afsona va rivoyatlar xalq og‘zaki ijodining muhim shakllaridan hisoblanadi. Ular avloddan-avlodga uzatilib, xalqning tarixiy va madaniy qadriyatlarini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, afsona va rivoyatlar o‘rtasida mazmun, maqsad va voqealarning haqiqatga yaqinligi bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud. Afsona — ko‘pincha fantastik yoki mavhum voqealarga asoslangan hikoya bo‘lib, unda qahramonlar inson bo‘lmagan mavjudotlar ham bo‘lishi mumkin, ya’ni ular xalq og‘zaki ijodi (folklor) janri. U xayolot, uydirma va to‘qimadan iborat bo‘lsada, so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi, hatto bo‘lib o‘tgan davri, makon ham ko‘rsatiladi. Afsonalar og‘izdan og‘izga, eldan elga o‘tib kelgan, ifoda usuli bayon tarzida. Afsonalar og‘zaki hikoyat bo‘lib, u xayoliy obraz yoki tasavvur asosiga quriladi, hikoya qiluvchilar va tinglovchilar tomonidan qachonlardir shunday bo‘lgandek qabul qilinadi. Rivoyatdan farqli o‘laroq afsonalar zaminida ,albatta, mo‘jiza, sehr-jodu bo‘ladi. Afsonalar olam (Yer, Quyosh va boshqa sayyoralar yuzaga kelishi) haqida, hayvonot dunyosi (masalan, sher,

ajdaho, anqo, semurgʻ va boshqalar)ga oid, tabiatdagi voqea, hodisalar (masalan, chaqmoq, zilzila, shamol va boshqalar) xususida, va boshqa turli-tuman mavzularda boʻladi. Afsonalar hajmi kichik, bayon qilinishi sodda, badiiy tasvir vositalaridan deyarli xoli boʻladi, tuzilishiga koʻra ertak, naql, rivoyatlarga oʻxshab ketadi. Afsonalar yozma adabiyotning, ayniqsa, badiiy, falsafiy, dinga, axloqqa oid asarlarning mavzuyi, muayyan qismi tarzida gʻoyaviy-estetik vazifani bajargan. Masalan, „Qutadgʻu biligʻ“, „Devonu lugʻotit turk“, Alisher Novoiyning „Hamsa“, Dantening „Ilohiy komediya“, Chingiz Aytmatovning „Oq kema“, Erkin Vohidovning „Ruhlar isyoni“, Abdulla Oripovning „Jannatga yoʻl“ kitoblarida afsononalar asarning badiiy-estetik va taʼsir kuchini oshirishga, inson ruhiyatini yanada chuqur va toʻlaqonli tasvirlashga xizmat qilgan.2. Koʻchma maʼnoda — uydirma, yolgʻon, aqlga toʻgʻri kelmaydigan gap.Xalqimiz orasida "shirin qiz", "oyda nima uchun dog bor", quyosh bilan oyning bir oilada yashagani, yulduzlar ularning bolalari ekani haqidagi afsonalar koʻp. "Qonqus", "Kuygan yor", "Oshoba", "Andijon", "Tuya choʻkdi" kabi yuzlab afsonalar borki, ularning yozuvchilarimiz ham oʻz ijodlari davomida foydalanadilar.

„Devqalʼa“ afsonasida mifologik tasavvurlarning izlari saqlanganligi uning juda qadim zamonlarda yaratilganligini koʻrsatadi. Biroq u bizga qadar juda koʻp oʻzgarishlar bilan yetib kelgan. Shuning uchun ham Devqalʼaning qurilish sababi sof sevgi-muhabbat, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalar bilan bogʻlanib, vafodorlikni tarannum etish afsonaning yetakchi gʻoyaviy asosini tashkil etgan.Afsonada aytilishicha, bahaybat Devqalʼani Farhod ismli dev qurgan emish. Farhod Xorazm shohinig Shirin nomli qizini sevib qoladi va unga sovchi qoʻyadi. Bu narsa podshohni tahlikaga soladi. Qizini devga berishga qoʻrqqan podshoh rad javobini berishdan qoʻrqib, Jodugar kampirdan yordam soʻraydi. Jodugar Farhodga bajarib boʻlmaydigan vazifani -Qoraqum choʻlining oʻrtasiga tosh qalʼa qurishni topshiradi. Biroq dev uzoq Janubdagi togʻlardan yelkasiga tosh koʻtarib kelib, qalʼani quradi. Qalʼa bitay deb qolganda podshoh Jodugarni maslahatga chaqiradi. Jodugar podshohga oʻzi belgilagan kuni 9000 ta yangi tugʻilgan boʻtaloq, shuncha toy, buzoq va qoʻzi soʻyishni maslahat beradi. Qolgan ishni oʻzi zimmasiga oladi. Belgilangan paytda Jodugar dev qurib tamomlayotgan qalʼaga keladi. Shu payt Xorazm tomondan dahshatli hayqiriqlar eshitiladi. Bu bolalari soʻyilayotgan minglab hayvonlarning ovozi edi. Farhodning «Bu qanday yigʻi?» degan savoliga kampir» «hozirgina malika vafot etdi, Shiringa butun Xorazm motam tutmoqda», deya javob beradi. Sevgilisining oʻlimi toʻgʻrisidagi xabardab gangib qolgan dev usiz yashashni istamay, hali joyiga qoʻyilmagan toshni osmonga uloqtiradi. Tosh Farhodning boshiga kelib tushadi. Devni sevib qolgan Shirin ham fojia roʻy bergan joyga yetib keladi va sevgisining murdasi tepasida oʻziga pichoq sanchib halok boʻladi.

Xalq Farhod siymosida yaxshilik, misilsiz kuch-quvvat va ijodiy mehnatning umumlashma obrazini yaratgan. Jodugar esa ibtidoiy yalmog'izning hayotiy varianti, ayni paytda yovuz kuchning xayoliy obrazidir. Demak, afsona mardlik va qahramonlik, kuch-quvvat, vafodorlikning ajoyib ifodasidir. Hayotiy voqealarni qisman hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og'zaki ijod janrlaridan biri rivoyatdir. Ular g'oyaviy-tematik jihatdan rang-barangdir. Rivoyatlarda tarixiy voqealar va ayrim shaxslar bilan bog'liq bo'lgan voqealar, kishilar turmushi, geografik joylar–sahro, ko'l, cho'l, dengiz, shahar, qishloq, qal'a, saroy va boshqalarning barpo bo'lishi hamda vayron qilinishi haqida xabar berishi va uni tasdiqlash vazifasini o'taydi. Rivoyatlarda lutf va nazokat, aql va tadbir, ishq va vafo, yaxshilik va odamiylik kabi ilg'or g'oyalar zulm va zo'rlik, haqsizlik va adolatsizlik singari illatlarga qarshi qo'yiladi. Rivoyatlar tematikasiga ko'ra tarixiy va toponimik rivoyatlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatlar biror shaxs faoliyati yoki xalq qahramonlari bilan bog'liq bo'lgan voqealarni aks ettirib, axloq va odobning Ideal normalarini tashviq etadi. To'maris, Shiroq, Alisher Navoly, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab, Amir Temur singari tarixiy shaxslar haqida yaratilgan rivoyatlar shular jumlasidandir. Rivoyatlar ikki, uch epizoddan tashkil topgan ixcham sujetga ega bo'lib, qat'iy kompozitsiyaga ega emas. Shuning uchun sujet voqealari, ko'pincha, go'yo tugallanmagandek, davomi bordek seziladi va tinglovchiga katta asardan uzib olingan bir lavha singari tuyiladi. Rivoyatlar tarixiy rivoyatlarni u yoki bu tarixiy shaxs yoki voqealar guvohi bo'lganlarning, ko'rgan-bilganlarning esdaliklari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Bu narsa rivoyat janrining o'ziga xos xususiyatini ta'minlaydi. Ba'zi tarixiy rivoyatlarda esa faktik voqealardan asar ham qolmay, faqat shox nomigina saqlanib qolishi mumkin, ba'zan esa tarixiy shaxs tayyor sujetlar qolipida hikoya qilinadi. Shunga qarmay, tarixiy shaxslarning ishtirok etishi, sujetda hayotiy uydirmaning mavjudligiga qarab bunday asarlarni tarixiy rivoyat hisoblaymiz. Tarixiy shaxs va tarixiy voqealar bilan bog'liq rivoyatlar yozib olingan davri e'tibori bilan ikki tipda namoyon bo'ladi. Ular bir-biridan shakl va mazmun hamda tarixiy fakti talqin qilish xususiyati bilan farqlanadi. Birinchi tip rivoyatlarga xalq orasida paydo bo'lgan davrda yozib olingan rivoyatlar kiradi. Bunday rivoyatlarda tasvirlangan voqea va hodisalar o'sha davr shart-sharoiti, ruhiga mos keladi. Bu jihatdan tarixiy janglar haqida yoki uning ta'sirida yaratilgan „To'maris“, „Shiroq“, „Zariadr va Odatida“, „Guldursun“ kabi rivoyatlar ahamiyatlidir. Bu rivoyatlar keltirilgan faktlarning aniq va to'liqligi bilan ajralib turadi. Xondamirning „Makorimul axloq“, Vosifiyning „Badoye ul-vaqoye“ asarlarida keltirilgan rivoyatlar ana shu tipdagi rivoyatlar turkumini tashkil qiladi. Ikkinchi tipdagi rivoyatlarga esa, yaratilgandan keyin uzoq zamonlar o'tgach, yozib

olingan rivoyatlar kiradi. Bu rivoyatlarlarda tarixiylik, faktik hodisalar xiralashgan. Ular hayotiy uydirmalar bilan qorishib ketgan. Natijada ertak, latifalarga xos tarixiy jihatdan noaniqliklar yuzaga kelga, tarixiy fakt o'z kuchini yo'qotgan. Bu tipdagi rivoyatlar afsonalarga yaqinlashib qolganliklariga qaramay, voqea va hodisalar haqida tushuncha yoki ma'lumot berishi jihatidan ahamiyatlidir. Toponimik rivoyatlar u yoki yoki bu joy joy nomi yoki biror obyekt bilan bog'langan bo'lib, hikoya qilingan voqealar uzoq o'tgan zamonda sodir bo'lgan. Ularda sujet aksariyat hollarda sxematik tarzda bo'lib, hikoya qilingan voqealar uzoq o'tgan zamonda sodir bo'lgan. Qolaversa, rivoyatlarda izohlangan nomlar har doim ham to'g'ri chiqavermaydi. Bu xildagi rivoyatlarlarni tarixiy, etnografik ishlar va badiiy ocherklarda, sayohatnoma va qadimgi manbalarda uchratish mumkin. Andijon toponimi haqidagi rivoyatlar fikrimizning isbotidir. Qorabugroxon degan podsho bo'lib, uning o'zi Qashqarda turar ekan. Kunlarning birida u ov qilib yurib, suv bo'yida qo'shiq aytib turgan qizni sevib qolibdi. To'ytomoshalar bilan unga uylangan kuni urush boshlanib, Qorabug roxon urushga jo'nab ketibdi. Bu urushda u g'olib chiqibdi. Amo og'ir yaralanibdi, yo'lda ahvoli og'irlashibdi. Shunda xon kun chiqish, ya'ni qaylig'i bor tomonni ko'rsatib: „Anda jon qoldi, meni o'sha yerga ko'minglar“, -deb jon beribdi. Vazirlari vasiyatga binoan, ko'rsatgan joyga ko'mibdilar. U yer keyinchalik shaharga aylanib „Anda jon, Andijon“ bo'lib ketgan ekan. Rivoyatda Andijon nomining kelib chiqishi to'g'ri izohlangandek bo'ladi. Aslida esa unday emas. „Andu“qabila nomi, „gon“ forsha ko'plik qo'shimchasi bo'lib, andularning jami va yig'ilgan joyi, demakdir. Vaqtlar o'tishi bilan Andijon bo'lib ketgan. Yuqoridagi rivoyatlardan ko'rinib turibdiki, bu xildagi rivoyatlar tom ma'nodagi badiiy asar darajasida bo'lmay, biror joy nomining paydo bo'lishini izohlovchi xabar bo'la oladi. Bunga Xorazm, Qarshi singari shahar nomlarining kelib chiqishi haqidagi rivoyatlar ham misol bo'la oladi. Toponimik rivoyatlarda hikoya qilishning o'ziga xos uslubi mavjud. Odatda, uning yakuniy qismida hikoyadan kelib chiqadigan asosiy maqsda ta'kidlanadi va mavjud faktlar izohlanadi. „To'rabekxonim maqbarasi“, „Anda Jon qoldi“, „Odinajon“, „Qo'ng'iro'“ kabi rivoyatlar shular jumlasidandir. Toponimik rivoyatlar ko'proq hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan bo'lib, asosan, joy nomlari haqida axborot berishi bilan muhim g'oyaviy-badiiy qimmatga ega. Umuman olganda, rivoyatlar xalq tarixi, uning estetik qarashlarini o'rganishda zarur bo'lgan og'zaki ijod janri hisoblanadi. Afsona va rivoyatlarning asosiy farqiga keladigan bo'lsak, afsonalar haqiqatdan uzoq bo'lgan uydirmalar bo'lsa, rivoyatlar tarixiy dalillar va faktlarga ega, kitoblarda

qayd etilgan, hikoya qilingan va manbasi borligi bilan afsonadan farqlanib turadi. Xulosa qilib aytganda, afsona va rivoyatlar xalq madaniyatining ikki asosiy shakli bo'lib, ularning har biri o'ziga xos funksiyalarga ega. Afsonalar insoniy fazilatlarni yoritib, axloqiy va ma'naviy saboq beradi, rivoyatlar esa tarixiy voqealarni saqlab, milliy xotira va tarixiy tafakkurga xizmat qiladi. Shu bilan birga, afsona va rivoyatni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish, ularning farqlarini aniq belgilash va xalq ijodini chuqur anglash imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiahmedov, A. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Mirzaev, T. O'zbek xalq ijodi tarixi. – Toshkent: Fan, 1981.
3. G'anieva, N. O'zbek folklori. – Toshkent: Universitet, 2008.
4. Sodiqov, Q. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2005.
5. Zarifov, M. O'zbek xalq dostonchilik san'ati. – Toshkent: Fan, 1972.
6. Xudoyberdiyev, A. Afsona va rivoyatlarning badiiy xususiyatlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.